

**BUYRUQ**

23 sentabr 2024 yil.

TOSHKENT

**415-son****Jamiyatning odob-axloq qoidalariga  
rioya etilishini ta'minlashga doir ichki  
idoraviy hujjatlarni tasdiqlash  
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi"ning 21-bandiga asosan Jamiyat faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirish, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining 2022-yil 25-oktabrdagi 1015-H sonli "Jamiyatning odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga doir ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash" to'g'risidagi buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida hamda korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens nazorat" (compliance control) tizimini joriy etish shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning menejment tizimi ISO 37001:2016 standarti bo'yicha sertifikatlashtirish choralari ko'rish va shu o'rinlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi "Davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Jamiyatning odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga doir asosiy ichki idoraviy hujjatlarni ya'ni:

- "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ xodimlarining odob-axloq Kodeksi **1-ilovaga** muvofiq;

- Jamiyatning odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq;

- Jamiyatning odob-axloq komissiyasi tarkibi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamiyatning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tarkibiy tuzilmalari Jamiyat xodimlarining odob-axloq Kodeksidan kelib chiqqan holda, o'zlarining ichki hujjatlari qabul qilinishi ta'minlansin.

3. Belgilab qo'yilsinki, Jamiyat xodimlarining odob-axloq Kodeksi talablarining buzilishi qonunchilik hujjatlariga muvofiq intizomiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

4. Personalni boshqarish bo'limi **(A.M.Mirsoatov)** o'n kun muddatda tasdiqlangan Jamiyat xodimlarining odob-axloq Kodeksi bilan Jamiyatning barcha xodimlari tanishtirilishini ta'minlansin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman

**Bosh direktor****Sh.T.Kadirov**